



LUMBAR DISK CHURRASINI MAGNIT-REZONANS
TOMOGRAFIYA YORDAMIDA DIAGNOSTIKA QILISH VA UNING
KLINIK AHAMIYATI

Sharofova Charos

+998938002277

Toshkent Davlat tibbiyot Universiteti talabasi

Dolzarbligi. Orqa miya churrasi (lumbar disk churrasi) umurtqa pog‘onasidagi umurtqalar orasidagi diskning ichki qismining tashqariga chiqib ketishi natijasida nerv ildizlarining siqilishi bilan kechadigan degenerativ kasallik hisoblanadi. Ushbu holat odatda bel sohasida og‘riq, oyoqlarga tarqaluvchi og‘riq, sezuvchanlik va harakat buzilishlari bilan namoyon bo‘ladi. Orqa miya churrasi bel og‘rig‘i bilan murojaat qilgan bemorlarning taxminan 60–80% ida uchraydi (PMID: 39326345). Ushbu patologiya asosan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida ko‘proq kuzatiladi.

Kasallik davolanmagan taqdirda nerv ildizlarining davomli siqilishi natijasida surunkali og‘riq sindromi, nevrologik defitsit va harakat cheklanishi rivojlanadi, bu esa bemorlarning hayot sifatining sezilarli pasayishiga olib keladi.

Maqsad. Lumbar disk churrasi bilan og‘rigan bemorlarda MRT tekshiruvlari asosida disk churrasining morfologik shakllarini aniqlash va uning klinik belgilar bilan bog‘liqligini baholash.

Material va usullar. 40 nafar lumbar disk churrasi bilan og‘rigan bemorlar tekshirildi. Bemorlar klinik ko‘rikdan o‘tkazilib, shikoyatlari, kasallik



davomiyligi va nevrologik holati baholandi. Klinik baholashda bel sohasidagi og‘riqning lokalizatsiyasi, radikulyar og‘riqning tarqalishi, sezgi va harakat funksiyalarining buzilishi hisobga olindi. Radiologik tekshiruv sifatida magnit-rezonans tomografiya (MRT) qo‘llanildi. Tekshiruvlar standart protokollar asosida sagittal, aksial va zarur hollarda koronal proyeksiyalarda T1 va T2 vaznlangan rejimlarda bajarildi. MRT yordamida intervertebral disklarning morfologik holati, disk balandligi, degenerativ o‘zgarishlar va churraning aniq lokalizatsiyasi o‘rganildi. Spinal kanal kengligi, foraminal zonalar holati va nerv ildizlarining siqilish darajasi baholandi. Disk churrasining asosiy shakllari — protruziya, ekstruziya va sekvestratsiya — aniqlanib, ularning klinik simptomlar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Olingan MRT natijalari asosida bemorlar guruhlarga ajratilib, radiologik va klinik ko‘rsatkichlar solishtirildi.

Natijalar. Kuzatilgan 40 nafar bemor natijalariga ko‘ra, MRT tekshiruvlari asosida protruziya 17 nafar bemorda (42,5%), ekstruziya 16 nafar bemorda (40%), sekvestratsiya 7 nafar bemorda (17,5%) aniqlangan. Bemorlarning aksariyatida intervertebral disk balandligining pasayishi 29 nafar bemorda (72,5%) va degenerativ o‘zgarishlar 30 nafar bemorda (75%) qayd etilgan. Nerv ildizlarining siqilishi 27 nafar bemorda (67,5%) turli darajada kuzatilgan.

Olingan natijalar MRT usulining lumbar disk churrasini aniqlash va uning darajasini baholashda yuqori informativ usul ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Lumbar disk churrasini aniqlashda MRT yuqori informativ va ishonchli usul hisoblanadi. MRT yordamida churraning morfologik shakllari, joylashuvi va nerv tuzilmalariga ta’siri aniq baholanadi. Olingan natijalar ushbu usulning klinik diagnostikada muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.